



BADIIY ADABIYOTDA FRAZELOGIZMNING USLUBIY VAZIFASI

Iskandarov Bahrom

O'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada frazeologizmning badiiy adabiyotdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning obrazli ifoda, emotsional ta'sir, va uslubiy rang-baranglikni yaratishdagi roli ko'rib chiqiladi. Frazeologizmlar asarlarning nutqida voqealarni tasvirlash, personajlarning xarakterini ochish, shuningdek, satira va yumor yaratish uchun muhim vosita sifatida ishlatiladi. Matnda frazeologik birliklarning semantik va uslubiy xususiyatlari, ularning sinonimiyasi va ta'sirchanlik darajalari ham o'rganilgan. Tadqiqotda frazeologizmning tilshunoslikda va badiiy asarlarda qanday foydalanilishi, yozuvchining frazeologik birliklardan foydalanish mahorati va bu birliklarning til boyligi va adabiy asarlarning estetik qimmatini qanday oshirishi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, badiiyadabiyot, uslubiyvazifa, obrazliifoda, emotsionalta'sir, sinonimiya, satira, yumor, tilboyliqi, badiiy asar.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИИ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ХУДОЖЕСТВЕННОСТИ

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение фразеологизмов в художественной литературе. Анализируются стилистические функции фразеологизмов, таких как создание образных выражений, эмоционального воздействия и стилистического разнообразия. Фразеологизмы играют важную роль в изображении событий, раскрытии характера персонажей, а также в создании сатиры и юмора. Статья также исследует семантические и стилистические особенности фразеологических единиц, их синонимию и степень выразительности. Рассматривается, как фразеологизмы используются в языке художественных произведений, как их наличие способствует богатству языка и повышает эстетическую ценность произведений.

Ключевые слова: фразеологизм, художественная литература, стилистическая функция, образное выражение, эмоциональное воздействие, синонимия, сатира, юмор, языковое богатство, художественное произведение.

THE STYLISTICAL FUNCTION OF PHRASEOLOGISM IN LITERATURE

Abstract: This article explores the role and significance of idiomatic expressions in literary works. It analyzes the stylistic functions of idioms, such as creating vivid expressions,

emotional impact, and stylistic variety. Idiomatic expressions play an essential role in depicting events, revealing the characters' traits, and generating satire and humor. The paper also examines the semantic and stylistic features of idiomatic units, their synonymy, and levels of expressiveness. It discusses how idioms are used in literary language, their contribution to linguistic richness, and how they enhance the aesthetic value of literary works.

Keywords: idiomatic expressions, literary works, stylistic function, vivid expression, emotional impact, synonymy, satire, humor, linguistic richness, literary work

Kirish. Ma'lumki, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'lagavdalanirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi ijobiy va salbiy harakat holatlarni baholash, turmushda bo'lib o'tadigan turli hayotiy tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi.

Lirik va epik asarlarni frazeologik jihatdan tahlil qilishda ularning asarga qanday ma'no yuklayotganiga e'tibor qaratish kerak. Badiiy asarlarda obrazlarning harakterini ochib berish uchun frazemalarning o'rni katta. Bundan tashqari frazema asar personajlari nutqining ta'sirchanligini, so'z tejash orqali fikrni aniq va uslubiy bo'yoqlar bilan yetkazib berishni ta'minlaydi. Bilamizki, ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga shu ko'rinishda kiritilgan til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. [1].

Adabiyotlar tahlili. Ko'plab tadqiqotchilar frazeologizmlarni ilmiy tadqiqotlari davomida o'rganib chiqqan. Xususan, frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh. Ball asos slogan va uning mohiyatiga shunday ta'rif bergan: Tilga mustahkam kirib kelgan birikmalar frazeologik burilishlar deyiladi. Tadqiqotchilar V.L. Arxangelskiy, S.G. Gavrin, V.N. Teliya frazeologik birlikni so'z bilan metafora, ekvivalentlik va sinonimiya kabi ikkilamchi belgilari bilan ajralib turadigan lisoniy birlik deb belgilaydi. V.V. Vinogradov frazeologik aylanishning eng muhim belgisi sifatida uning so'z bilan tengligi va sinonimligini ko'rsatadi. [2].

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni Sh. Rahmatullayev, I. Qo'chqortoyev, M. Sodiqova, A. Rafiyev kabi olimlar ishlarida keng o'rgangan. Xususan, Shavkat Rahmatullayev "Nutqimiz ko'rki" kitobida frazeologik birliklarning muhim belgi-xususiyatlari qo'shma so'zga, erkin bog'lanmaga, to'g'ri ma'noli turg'un bog'lanmaga, analitik formaga, maqol va aforizm kabi hodisalarga qiyosan tahlil qilingan. Iboralarning semantik birlik sifatida so'zga ekvivalentligi ulardagi polisemiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiya hodisalari asosida isbotlangan. [3].

Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldordir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topgan, obrazli, ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi va hokazo. Olimlar

o‘rgangan ishlarida frazeologizm masalalari yetarli darajada tahlil qilingan. So‘zlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qo‘llanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali o‘rganilganligi diqqatga sazovordir. Lekin shu bilan birga badiiy matnlarda yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar juda kamchilikni tashkil etadi. [4].

Tahlil va natijalar. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta’sirchan vosita sifatida qo‘llaniladi. Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnda tadqiq va tahlil etilishi muhim hisoblanadi. Frazeologizmlar badiiyatlikni ochib beruvchi unsur hisoblanadi. Badiiy nutqqa o‘zgacha joziba, ko‘tarinki ruh, yengillik baxsh etadi. [5]. Frazeologizmlar biror narsa-hodisani atash, nomlash vazifasini bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi. Adabiy tilning sofliigi va ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalardan biri frazeologizmlar hisoblanadi. Frazeologik birliklarning eng ko‘p badiiy matnda, qisman publitsistika, ilmiy-ommabop matnlarda qo‘llanadi. Yozuvchi badiiy matnda frazeologik birliklardan quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

1. Biror voqea va hodisani obrazli, ta’sirli ifodalash uchun; Masalan: tili uzun, ilonni yog‘ini yalagan, dunyoni suv bossa, uning to‘pig‘a ham chiqmaydi.

2. Turli holatlarni baholash uchun; frazeologizmlar salbiy yoki ijobiy bahoga ega. Masalan: Uning ko‘zlari olayib o‘rnidan turolmay qoldi.

3. Badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun; Masalan: Xudoga shukr, ko‘ngli joyiga tushdi.

4. Nutqda ekspressivlikni ifodalash uchun; "Ekspressiya" so‘zi aslida lotincha so‘z bo‘lib, "kuchaytirilgan; ifodali, tasviriy "-degan ma’noni anglatadi. Nutqning ta’sirchanlik xususiyatini ifodalaydi.

5. Badiiy matnda satira va yumor hosil qilish uchun; "Yumor va satira vositalari orasida frazeologizmlar alohida o‘rin tutadi. Bu esa ularning ichki tabiati bilan bog‘liq, chunki ko‘pgina frazeologik birliklarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq, piching, singari ma’no nozikliklari bo‘ladi. Frazeologizmlar badiiy asardagi qahramon nutqini, uning so‘zlash ohangidagi yumoristik yoki satirik ishorani ta’kidlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi".³

Frazeologizmlar badiiy matnga estetika, zavq beradi. Kitobxon asarni o‘qish jarayonida frazeologizmlardan o‘ziga boshqacha emotsiya oladi. Yozuvchi asarlarida qancha ko‘p frazeologizmlarni ishlatasa, uning asarining qimmatini shunchalik oshadi. [6]. Yozuvchi frazeologizmlardan asar qahramonining xarakterini, uning holatini ichishda foydalanadi. Frazeologik birliklarni badiiy matnda qo‘llash juda murakkabdir. Bu birliklarning mazmun tarkibida ham frazeologik, ham uslubiy ma’nolar mavjud. Badiiy matnda, umuman, yozma va og‘zaki matnlarda frazeologizmlar qo‘llanilganda, bu birlik bir qator vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning biri uzual, ya’ni lisoniy xarakterga ega bo‘lsa, qolganlari okkazional, ya’ni nutqiy (uslubiy) funksiyadir. Frazeologizmlarning ichki ma’nosi, ichki tabiati har qanday badiiy matnda ro‘yobga chiqadi. Har bir yozuvchining frazeologizmlardan foydalanish uslubi va

yo‘nalishlari bo‘ladi. Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma‘no hodisasidir. Frazeologizm va so‘z bo‘lmasa, nutqiy-sintaktik butunlik ham bo‘lmaydi.

Badiiy asarda sinonim so‘z va sinonim iboralardan foydalanishda, ularanglatadigan ma‘no farqlari va emotsional-ekspressiv belgi xususiyatlari hisobgaolinadi. Chunki qo‘llanayotgan har bir sinonim so‘z va sinonim ibora o‘z ma‘nonozikliklari bilan bir-biridan farqlanib, ulardan o‘rinli foydalanish ifoda etilayotgan fikrning aniq va ravon bo‘lishiga xizmat qiladi. Bir frazeologik sinonimiya qatorinitashkil etgan iboralar bir-biridan o‘zlari ifodalagan ma‘no qirralari, uslubiyoqdorligi, konnatativ ma‘nosi, ta’sirchanlik va obrazlilik darajasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, yozuvchining qanchalik ko‘p sinonimlardan foydalanish mahorati uning til boyligining xilma-xil ekanligidan dalolat beradi.

Har bir ijodkorning o‘zigagina xos bo‘lgan tili, ohangi bo‘ladi. Yozuvchi asarining tili xususida fikr yuritganda uning tasvir uslubi, psixologik tahlil tarzi, voqelikka va odamlarga yangicha yondashuvi, faqat o‘zigagina xos bo‘lgan latif piching va achchiq kinoyaga yo‘g‘rilgan tili, sheva so‘zlaridan haddan tashqari unumli foydalangan jihatlarini alohida ta’kidlash zarur. Har qanday adabiy asarning badiiy yuksakligi, birinchi galda, nutq qurilishida namoyon bo‘ladi. Asardagi badiiy nutq individualligini ta’minlovchi vositalar sirasiga xalq tomonidan ishlatiladigan iboralar, so‘z o‘yinlari va o‘xshatishlarni kiritamiz. Bu vositalar personajlar nutqiy faoliyatida alohida o‘rin egallaydi. Shu sababli adib qissalari bu kabi til vositalarining kommunikativ jarayonda qo‘llanish darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. [7].

Badiiy matnlarda munosabat ifodalovchi lisoniy vositalar struktural va semantik jihatdan ko‘p qirralidir. Bunday til vositalarini hamda monolog, dialog kabilarning badiiy matnlardagi rolini chuqurroq tadqiq etish yozuvchi uslubini, lisoniy vositalarning uslubiy imkoniyatlarini yanada kengroq o‘rganish uchun mustahkam zamin hozirlaydi, ta’lim tizimining hamma bosqichlarida til o‘qitish saviyasini yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, frazeologizmlar muhim lingvistik birlik bo‘lib, ular boshqa birliklardan strukturaning o‘tkazmasligi bilan ajralib turadi. Iboralar nafaqat so‘zlashuvda, balki badiiy adabiyot va publitsistikada ham qo‘llash yo‘llari xilma-xil. Tilimizning frazeologizm qatlami doimiy ravishda yangi frazalar bilan boyib boradi. Ular esa millatimizning madaniy olamini, xarakter-xususiyatini namoyon etib turuvchi muhim omildir. Mazkur tadqiqot davomida lirik va epik asarlardagi frazeologik birliklarning uslubiy vazifasini, ma‘no jihatini va olimlarimizning u haqidagi turli nazariy qarashlarini ko‘rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. 416 с.
2. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке//Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. 140-161 с.

3. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986. 336 с.
4. Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие, источники и лексикографическая разработка. – Л.: Наука, Ленингр. отд-ние, 1970. 263 с.
5. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. Учебник для ин-тов и фак. иностр.яз. - 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Высшая школа, 1986. 296 с.
6. В.Л. Архангельский. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов;Изд-во РГУ, 1964. 315 с.
7. Ларин Б. А. Очерки по фразеологии // Ларин Б.А. История русского языкаи общее языкознание (избранные работы). – М., 1977. 224 с.
8. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. Изд. 3-е, испр. и доп.. – М.: Высшая школа, 1985. 160 с.
9. Abduazizov.A. "Til nazariyasiga kirish" Toshkent. 2010. 88-bet.
10. Yo‘ldoshev.B. "Hozirgi frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari". Toshkent 1993. 25-bet.
11. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Sh. Rahmatullayev. «O‘qituvchi». T. 1978